

“QO‘QON XONLIGI TARIXINING O‘RGANILISHI”**Hasanov Muhtorjon Qaxramonjon o‘g‘li ¹**¹ *Qo‘qon davlat universiteti talabasi**muhtorjonhasanov04@gmail.com***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 29.05.2025**Revised: 30.05.2025**Accepted: 31.05.2025***KALIT SO‘ZLAR:***Tadqiqot,
Tarixshunoslik, Qo‘qon
xonligi, Manba, Siyosat,
Tahlil, Yondashuv.*

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligi tarixi haqida yozilgan bir necha asarlarning tahlili taqdim etilgan. Xonlik tarixi turli davrlarda o‘rganilgan bo‘lgani sababli, u yerda bir qancha farqlar va tafovutlarga duch kelishimiz mumkin. Avvalo, manbalarga yondashuvning davr mafkurasiga asoslanganligini ko‘rishimiz mumkin. Quyida keltirilgan ba‘zi asarlarda xonlik tarixi bilan bog‘liq yutuqlar bilan birga bir qator xatoliklar va kamchiliklar ham ko‘rsatilgan.

KIRISH. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lida o‘z tarixini chuqur anglash va o‘rganish jarayonini jadal davom ettirmoqda. Shu bilan birga, O‘rta Osiyo mintaqasining yirik madaniyat va siyosat markazlaridan biri bo‘lgan Qo‘qon xonligi tarixining o‘rganilishi alohida ahamiyatga ega. Qo‘qon xonligi tarixiga bo‘lgan ilmiy yondashuv, uning davlatshunoslik, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy tuzilmalari bilan bog‘liq bir qator muhim ma‘lumotlarni o‘rganishga imkon yaratadi. Yangi O‘zbekistonda bu tarixni tadqiq etishda avvalgi davrlarda mavjud bo‘lgan yondashuvlarga qarshi yangi ilmiy izlanishlar, tahlil va yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganish nafaqat tarixiy haqiqatlarni tiklash, balki O‘zbekistonning bugungi va kelgusi taraqqiyotida tarixiy merosning ahamiyatini ko‘rsatish uchun ham katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning: “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak.” [1], — degan iqtibosli so‘zlarini aytib o‘tishimiz mumkin.

ASOSIY QISM

Qo'qon xonligi (1709–1876) tarixi O'rta Osiyo davlatlari tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, yirik madaniyat va siyosat markazlaridan biri sifatida qadrlanadi. Ushbu xonlikning o'rganilishi, nafaqat uning tarixiy voqealarini, balki davr mafkuralarining ta'sirini ham o'z ichiga oladi. Qo'qon xonligi tarixiga oid bir qator ilmiy asarlar mavjud bo'lib, ular har xil davrlarda yozilgan va turli xil yondashuvlarga ega. Shu bilan birga, Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda yuzaga kelgan tafovutlar va qarama-qarshiliklar ilmiy tadqiqotlar uchun muhim muammo bo'lib qolmoqda. O'zbek davlatchiligining ajralmas qismi bo'lgan Qo'qon xonligi va uning ma'muriy-boshqaruv tizimini aniq dalillarga tayanib bayon etish va chuqur tahlil qilish tarix fanining dolzarb masalalaridan biridir.

Bu xonlik davlat tuzilishining ko'p xususiyatlari bilan boshqa O'rta Osiyo xonliklariga o'xshash bo'lgan bo'lsa-da, undagi davlatni idora etishga mas'ul bo'lgan shaxslar, boshqaruv tizimining ayrim bo'g'inlari funksiyalarida keskin farqlar bor edi [2,-462-466 b.].

Qo'qon xonligi hamda boshqa O'rta Osiyo davlatlarining turli jihatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, tadqiqotchilar tomonidan Rossiyaning mintaqadagi harbiy harakatlaridan ancha avval boshlangan. Ushbu ilmiy izlanishlar, mahalliy va xorijiy mualliflarning mintaqaning boy tarixiy merosiga hamda uning G'arb va Sharq mamlakatlari bilan o'tkazgan savdo-iqtisodiy aloqalariga qiziqishlari bilan izohlanadi. Ayniqsa, XIX asrda Markaziy Osiyo xonliklari tarixshunosligi materiallarining ko'payishi, mintaqa Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi harbiy-siyosiy va diplomatik raqobatning markaziga aylangan davrga to'g'ri keladi. Shu davrda, xonliklar o'rtasidagi nizolar Chorizmning Markaziy Osiyodagi imperialistik va strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratganidan so'ng yanada kuchayib bordi.

Qo'qon xonligi nafaqat o'zining qo'shni xonliklari va amirliklari, balki unga chegaradosh va o'zaro diplomatik, siyosiy, hamda iqtisodiy aloqada bo'lgan boshqa davlatlarning tarixida ham muhim o'rin egallaydi. Xonlik tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'lami va qamrovining kengligi tufayli, uni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: biri rus tadqiqotchilari, ikkinchisi esa mahalliy olimlar. Ushbu guruhlariga ajratilganligi sababli, har bir tadqiqotchilar guruhi bir xil mavzuga turlicha yondashuv bilan, har biri o'z davrining mafkurasiga mos tarzda ilmiy tahlil olib boradi.

V.V.Bartold olib borgan tadqiqotlarida asosiy e'tiborini Qo'qon tarixining siyosiy jihatlariga qaratgan. A.Vamberi esa bundan mustasno holatda o'z asarlarida mustamlakachilik siyosatini yoritmagan [3,-7 b.]. A.Kun va A.P.Xoroshxin asarlarida XIX asr 70-yillarida Buxoro va Xiva xonliklariga nisbatan Qo'qon xonligi tarixiga ko'proq

e'tibor berilgan. Ular tomonidan yaratilgan tarixiy asarlarda Qo'qon xonligining siyosiy hayoti bilan bir qatorda yirik shaharlarning davlat iqtisodiyotidagi o'rni, mamlakat aholisining etnik tarkibi, etnoslarning mashg'ulotlari, bozorlar, karvonsaroylar faoliyati hamda davlatning iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi moliya tizimi va soliqlarning miqdori haqida boshqa adabiyotlarga nisbatan aniqroq ma'lumotlar berilgan [4,-188 b.].

Xonlik tarixi haqidagi muhim asarlardan biri V.P. Nalivkin [5,-8 b.] nomiga tegishlidir. Uning asarida Qo'qon xonligining davlatchilik tizimi va siyosiy jarayonlari batafsil bayon etilgan.

N.A. Maevning ilmiy izlanishlari, xonlikning bosib olinishi jarayonini haqqoniy va obyektiv tarzda yoritishga bo'lgan harakatlari bilan ajralib turadi.

XIX asrning 50-yillarida Qo'qon shahri haqida o'z ko'rgan va boshidan kechirgan voqealarini Ch.Ch. Valixanov o'z asarlarida batafsil bayon etadi. U o'sha davrdagi xonlikdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni, shaharlarning holatini, aholining etnik tarkibini, ularning turmush tarzini va savdo-sotiq aloqalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'z yozmalarida keng yoritib, tarixiy manba sifatida qoldirgan.

Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha yaratilgan 40 dan ortiq asar mavjud bo'lib, ular asosan xonlarning buyurtmasi asosida yozilgan. Sharq tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu manbalarni yoritishda ko'pincha obyektivlikka e'tibor berilmasdan, jarayonlarning faqat bir tomonlama yoritilishi. Agar bunday kamchiliklar manbalarni yaratish jarayonida mavjud bo'lsa, ularning keyingi tadqiqotlarda ham o'z aksini topishi ehtimoldan holi emas. Bobojonov o'z ilmiy ishlarida sovet davrida Qo'qon tarixini o'rgangan olimlarning tadqiqotlarini tahlil qilib chiqadi.

S.X. Ishonxonov tomonidan tayyorlangan va nashr etilgan Qo'qon tangalari katalogi nafaqat numizmatika sohasida katta ilmiy yutuq bo'ldi, balki shu bilan birga xonlarning hukmronlik davrlarini qayta talqin qilish va siyosiy jarayonlarni yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqish imkonini berdi. Biroq, bu katalog yanada kengroq bo'lishi mumkin edi. Shuningdek, tangalardagi ayrim yozuvlarning noto'g'ri o'qilishi va ularni ilmiy muomalaga kiritish tarixchi uchun katta xato hisoblanadi.

Qo'qon tarixini manbalar asosida o'rgangan olim T.K. Beysembiyevning "Tarixi Shohruxiy" va "Alimquli hayoti" asarlari doirasida olib borgan tadqiqotlari o'ziga xos ahamiyatga ega. Muallif o'z ishida Qo'qonning siyosiy tarixini umumiy shaklda yoritishga harakat qilgan. T.K. Beysembiyevning asarlari va Qo'qon tarixnavisligi bo'yicha keng qamrovli manbalardan foydalanishi uning ilmiy ishining alohida xususiyatlaridan biri

sifatida tan olingan. Bu “Qo‘qon yilnomalariga oid izohli ko‘rsatkich” asarida yana bir bor tasdiqlanadi. Tadqiqotchi o‘z ilmiy ishlarida keng bibliografiyani keltirib, keyingi olimlar uchun qulay sharoitlar yaratgan.

Muallifning o‘z davriga xos sinfiy (mafkuraviy) qarashlari bo‘lsa-da, mustaqillikdan so‘ng bu nuqtai nazardan ozod bo‘lishi mumkin bo‘lgan. Rossiya imperiyasining Qo‘qon hududiga kirib kelishi haqida yozilgan “Alimquli hayoti” asarining tarjimai va o‘rganilishi muallifning tarixga qo‘shgan muhim hissa sifatida baholanadi.

Sovet Sharq maktabining o‘ziga xos uslubi – bitta qo‘lyozma manba asosida ishlash va uning tahlilini olib borishdir. Biroq, qiyosiy tahlilni amalga oshirmasdan va birgina manbaga tayanib ilmiy ishni tayyorlashda, manbadagi ma‘lumotlarning isbotlanmaganligi va boshqa manbalarda qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Bu esa, o‘z navbatida, tadqiqotning natijalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

E.Xurshut Hakimxon To‘ra tomonidan yozilgan “Muntahab at-tavorix” asari ustida olib borilgan izlanishlar alohida e‘tiborga loyiqdir. Tadqiqotchining bir qator nashrlari aynan shu asarga bag‘ishlangan bo‘lib, u avvalgi ilmiy ishlar bilan taqqoslaganda, ko‘proq tafsilotlarga ega. A.Muxtorov tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, Hakimxon To‘ra asari qayta ishlanib, undagi mavjud xatoliklar to‘g‘irlandi. Ammo, shu bilan birga, asar sinfiy-mafkuraviy yondashuv bilan yoritilganligi va qayta ishlangan manbaning doktorlik dissertatsiyasi uchun yetarli bo‘la olmaydiganligi ta‘kidlangan.

XIX asrning 80-yillarining oxiri va 90-yillar boshlarida yana bir sovet sharq maktabi vakili Sh.X.Vohidov Qo‘qon tarixini manbalar asosida tadqiq qilishni boshladi. Uning ilmiy faoliyati asosan xonlik tarixiga oid manbalarni tizimli ravishda guruhlashga qaratilgan edi. Bu jarayon davomida ilgari noma‘lum yoki kam o‘rganilgan manbalar ilmiy muomalaga kiritildi, lekin bu manbalar faqat yuzaki ma‘lumotlarni taqdim etdi.

Qo‘qon siyosiy tarixining ayrim jihatlarini X.N. Bobobekovning tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. Masalan, “Po‘latxon qo‘zg‘aloni”da, o‘sha davrga xos bo‘lgan qabila separatizmining noaniq ko‘rinishlarini xalq harakati yoki sinfiy kurash sifatida talqin qilish, Sovet tarixshunosligining ta‘siri sifatida ko‘rilgan. Tadqiqotchi o‘z asarlarini asosan rus tilidagi mustamlaka davri nashrlariga va arxiv materiallariga asoslanib yozgan bo‘lib, mahalliy manbalardan juda kam foydalangan va ularni tizimli ravishda tahlil qilmagan. Bu yondashuv esa bir tomonlama va mafkuraviy nuqtai nazardan olib borilgan deb baholanishi mumkin.

X.Bobobekovning bir qator asarlari A.Hasanovning ishlariga o‘xshash bo‘lib, sovet davridagi tarixshunoslik maktabining yondashuvlaridan kelib chiqqan holda, ularning

nomlarining o'xshashligi bejiz emas. Sovet maktabining o'ziga xos uslublaridan biri esa, dissertatsiyaning nomlanishida bir xil klishe'lardan foydalanishdir. Masalan, "Falon muallifning asari falon va falon hudud tarixini o'rganishda muhim manba sifatida" kabi iboralar, ba'zan tarixiy jihatdan ahamiyatga ega bo'lmagan manbalarga katta ahamiyat berilishi haqida g'alati xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, bu klishe'lardan hozirgi kungacha foydalanilmoqda va ularni qo'llash, tadqiqotchilarning mavzu tanlashdagi konseptual fikrlashni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Yuqoridagi tahlilda biz Bobojonovning Qo'qon tarixi bo'yicha olib borgan ilmiy ishlarining yutuqlari va kamchiliklarini ko'rib chiqdik. Ularning umumiy kamchiliklaridan biri, tarixni mafkura asosida yoritish va uni siyosatning vositasi sifatida ishlatishdir. Bugungi kunga kelib, biz ushbu yondashuvdan hali ham butunlay voz kechganimiz yo'q, va bu muammo hali ham mavjudligini ko'rsatmoqda.

XULOSA

Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar davomida ko'plab olimlar va tadqiqotchilar bir qancha muhim manbalarni o'rganib, ularni ilmiy muomalaga kiritgan. Biroq, ularning ko'pchiligi sinfiy-mafkuraviy yondashuv bilan ish ko'rganligi sababli, ba'zi tadqiqotlarda tarixiy jarayonlar bir tomonlama yoritilgan. Ko'plab olimlarning ishlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, bu tadqiqotlarda mahalliy manbalardan cheklangan foydalanish, tahlilsiz va tizimsiz yondashuvlar mavjud bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda mustahkam ilmiy asosga ega bo'lish, manbalarni tizimli va obyektiv tahlil qilish zarurati o'zini ko'rsatmoqda. Shunday qilib, hozirgi va kelajakdagi tadqiqotchilar, tarixni to'g'ri va haqqoniy yoritish uchun yangi usullarni ishlab chiqishlari va o'zaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirishlari muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T., —Sharq, 1998.
2. Sh.M. Mirziyoyev. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi quriladigan hududga tashrif chog'idagi suhbatdan. 22.12.2018.
4. Бартольд В.В. История Коканда и Ферганской долины / Соч. Т. III. — Москва, 1965.
5. Sh.Y.Maxmudov. Qo'qon xonligining ma'muriy-boshqaruv tizimi. Tarix fanlari nomzodi... diss.-T.,-2007.

6. Z.Sh. Madrahimov. Qo‘qon xonligida savdo munosabatlari. Tarix fanlari nomzodi... diss.-Namangan.,-2009.
7. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань
8. Маев Н.А. О школьном образовании у магометань Средней Азии. Туркестанские ведомости. 1876.
9. Валиханов Ч. Ч. О состоянии Алтышара или шести восточных городов китайской провинции в 1858–1859 годах / Собрание сочинений. В 5-томах. – Алма-Ата, Т. III. 1985.
10. Bobobekov Haydarbek. Qo‘qon tarixi. T., —Fan, 1996.
11. I. Kuzikulov “Qo‘qon xonligi tarixi”. (o‘quv-uslubiy qo‘llanma) “Nam”-2014.
12. Z.Sh. Madrahimov “Qo‘qon xonligi tarixi” fanidan O‘quv-uslubiy majmua. Namangan-2024.
13. Т. К. Бейсембиев. “Тарих-и Шахрухя” как исторический источник. Алма-Ата. 1987.
14. Vohidov Sh., Xoliqova R. “Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan”. T.: Yangi asr avlodi. 2006.
15. Yusupov A.Q. “Qo‘qon xonligi aholisini etnik tarkibi va etnodemografik jarayonlar”. Magistrlik dissertatsiyasi – Qo‘qon-2010.
16. Ilxomov Z. A. “Aliquli amirlashkar va uning Qo‘qon xonligi siyosiy xayotida tutgan o‘rni”. Tarix fanlari nomzodi... diss. -Toshkent, 2004.
17. A. Q. Yusupov, M.Q. Hasanov. “Diplomatic and trade-economic relations between the Kokon khan and Russia”. ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, SJIF 2022-2.889, 2023-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2023
18. A. Q. Yusupov, M.Q. Hasanov. “Qoqon xonligining tarixiga nazar”. Qo‘qon DPI Ilmiy xabarlar-2023.
19. Sh. R. Karimov, M.Q. Hasanov. “Go‘zal va navqiron Xudoyorxon o‘rdasi”. Sun shine scientific journal (SSSJ)-2024.
20. M.Sh. Valiyev. M.Sh. M.Q. Hasanov. “Qo‘qon xonligi madrasalariga bir nazar...”. Analysis of world scientific views international scientific journal-2024.